

14-sentyabr matematik olim, akademik Shavkat Ayupov tavallud topgan

Taniqli matematik olim, akademik, O'zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti Ayupov Shavkat Abdullayevich 1952-yil 14-sentyabrda Toshkent shahrida ziyolilar oilasida tavallud topgan.



1974-yil Toshkent davlat universitetining matematika fakultetini tugatgan. 1977-yilda nomzodlik, 1983-yilda doktorlik dissertatsiyasini muvafaqqiyatli himoya qilgan.

Turli yillarda Toshkent davlat universitetida o'qituvchi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Matematika institutida katta ilmiy xodim, Algebra va analiz bo'limi mudiri, direktor o'rinbosari, direktor, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi raisi kabi lavozimlarida faoliyat yuritgan.

Olimning asosiy ilmiy ishlari funksional analiz va uning zamonaviy tarmoqlaridan biri hisoblangan operatorlar algebralari nazariyasiga oid. Akademik Sh.Ayupov Yordan algebralari sohasida ham nazariy, ham tatbiqiy yo'nalishda yirik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirdi. Gilbert fazosidagi o'z-o'ziga qo'shma operatorlar Yordan algebrasi tuzilishi va qurilishi bo'yicha muhim natijalar oldi.

2003-yilda Jahon Fanlar akademiyasi akademigi, 2008-2013-yillarda Italiyaning Triyest shahridagi Abdussalom nomidagi Nazariy fizika xalqaro markazining (ICTP) dotsent a'zosi bo'lgan. 2020-yildan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi.

Sh. Ayupov 1996-yil "Shuhrat" medali, 2003-yil "Mehnat shuhrati" ordeni, 2011-yil O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, 2017-yil Fan va texnika sohasidagi 1-darajali Davlat mukofoti sohibi, 2021-yilda "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan mukofotlangan.

Akademik Shavkat Abdullayevichni bugungi tavallud ayyomi bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi jamoasi nomidan chin dildan qutlaymiz. Ularga uzoq umr, mustahkam sog'lik, matematika fani, o'zbek ilm-fani, Fanlar akademiyasi rivojida sobitqadamlik, kuch-g'ayrat tilaymiz.